

## IQTISODIY O‘SISH VA FAROVONLIKNING HUDUDIY JIHATLARI

**Jo‘rayev Toshbolta To‘xtayevich**

*iqtisodiyot fanlari bo'yicha doktori, professori "Iqtisodiyot nazariyasi"*  
*kafedra professori Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*  
E-mail: [djoraevtoshbolta1956@gmail.com](mailto:djoraevtoshbolta1956@gmail.com)



**Ergashev Davron Baxtiyor o‘g‘li**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Moliya fakulteti 1-kurs talabasi*  
E-mail: [ergashevdavron479@gmail.com](mailto:ergashevdavron479@gmail.com)  
ORCID: 0009-0009-9810-8784



**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada hozirgi kunda iqtisodiy o'sishda ortda qolayotgan hududlarni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirish strategiyalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, shu hududlarda faoliyati to'xtab qolgan korxonalarni qayta ishga tushirish va ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, hamda ishsiz aholini ish o'rinlari bilan ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish va migrantlar salohiyatidan samarali foydalanish tavsiya etiladi. Maqolada hududiy iqtisodiy o'sishni amalga oshirish orqali aholi yashash tarzini ijobiy tomonga o'zgartirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Iqtisodiy o'sish, kambag'allikni qisqartirish, ish o'rinlari, migrantlar, aholi farovonligi, bandlik, yashash darajasi, davlat dasturlari*

**Аннотация:** *В данной статье с научной точки зрения проанализированы стратегии развития регионов, которые в настоящее время отстают в экономическом росте, а также пути сокращения бедности. Кроме того, предлагаются меры по*

возобновлению деятельности предприятий, прекративших свою работу в этих регионах, налаживанию производства, обеспечению безработного населения рабочими местами, сокращению уровня бедности и эффективному использованию потенциала трудовых мигрантов. В статье представлены практические рекомендации, направленные на улучшение уровня жизни населения посредством обеспечения регионального экономического роста.

**Ключевые слова:** экономический рост, сокращение бедности, рабочие места, мигранты, благосостояние населения, занятость, уровень жизни, государственные программы.

**Abstract:** This article scientifically analyzes strategies for developing regions that are currently lagging behind in economic growth and reducing poverty. It also proposes measures for restarting inactive enterprises in these regions, organizing production processes, providing employment opportunities for the unemployed population, reducing poverty, and effectively utilizing the potential of labor migrants. The article presents practical recommendations aimed at improving the living standards of the population through the implementation of regional economic growth.

**Keywords:** economic growth, poverty reduction, employment opportunities, migrants, population welfare, employment, living standards, government programs.

**Kirish.** Bugungi kunda mamlakatimizda ayrim hududlarda iqtisodiy rivojlanishni amalga oshirish e'tibor markazidagi masalalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi davrda davlat tomonidan ajratilgan mablag'lardan oqilona foydalanish, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarini rivojlantirish, yoshlarni ish bilan ta'minlash hamda aholi turmush tarzini o'rganish va yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni joriy etish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: „Hududiy iqtisodiy rivojlanishni har bir tuman va shahar imkoniyatlaridan kelib chiqib, yangi ish o'rinlarini yaratish, eksportni ko'paytirish va aholi daromadlarini oshirishning asosiy omili sifatida belgilangan“. [1]

Shu sababli, barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash „O'zbekiston-2030 strategiyasi“ ning ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qoraladi. [2]

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyoti shiddat bilan yuksalib bormoqda, ammo ba'zi hududlar ma'lum sabablarga ko'ra rivojlanishdan ortda qolmoqda. Nazarda tutilgan tuman va shaharlarning iqtisodiyotini rivojlantirish uchun bir qancha takliflar ilgari suriladi:

- faoliyat yuritmayotgan korxona va zavodlarni qayta ishga tushirish, mahalliy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va yangi ish o'rinlarini yaratish.

- Tuman va hududlarga investorlarni jalb qilish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagidagi yoshlarga foizsiz kreditlar ajratish va ularni rag'batlantirish .
- Mahalliy resurslarni ishlab chiqarish hamda takror ishlab chiqarish uchun unumli sarflash va jahon bozoriga yetib boradigan sifatli mahsulot ishlab chiqarishni faollashtirish.
- Mahalla va tumanlarda kasb-hunar maktablarni tashkil etish, kerakli jihozlar va zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash ,aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan dasturlar yaratish.
- Chet elga ketayotgan ishchi kuchidan mamlakat ichida foydalanish.

Natijada ishsizlar sonini sezilarli darajada qisqartirish maqsad qilinadi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Hududiy iqtisodiy o'sishni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid masalalar ko'plab xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan va hozirgi kunda ham bunday tadqiqotlar davom etmoqda. Jumladan , Ester Duflo va Abhijit Banerjee o'zlarining izlanishlarida kambag'allikni qisqartirishda „kichik qadamlar“ va aniq maqsadli ( targeted) yondashuvni taklif qilishadi. Ular hududlardagi sog'liqni saqlash va ta'lim sifatini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishishni isbotlagan.[3]

Rossiya va MDH davlatlarida hududiy iqtisodiyot bo'yicha yetakchi mutaxassis Natalya Zubarevich „Iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun hududlarga ko'proq iqtisodiy erkinlik berish kerak“- deb ta'kidlagan.[4]

„Texnologik tuzilmalar va innovatsiyalar orqali ortda qolgan hududlarni „sakrash“(leapfrogging) orqali rivojlantirish strategiyasini yana bir rus olimi Akademik Glazyev ilgari surgan.[5]

Amerikalik iqtisodchi Daron Acemoglu hududlarning ortda qolish sababini institutlar (qonun ustuvorligi ,mulk huquqi ) bilan bog'laydi .Uning fikricha , institutsional islohotlarsiz hududiy rivojlanishga erishib bo'lmaydi.[6].

Iqtisod va falsafa fanlari doktori professor T.T.Jo'rayev o'z tadqiqotlari jarayonida aholi bandligini ta'minlash va aholi turmush tarzini yaxshilash haqida o'zlarining shunday iqtiboslarini keltirib o'tgan : „Aholi bandligini ta'minlash orqali mehnatning qo'llanish doirasi kengayadi , tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmi ko'payadi kishilarning turmush darajasi ko'tariladi ,jamiyatdagi ijtimoiy tanglik yumshatiladi.[7]

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Maqolada hududlar iqtisodiy rivojlanishi va kambag'allik darajasi statistik va dinamik tahlili, kelgusida bu muommolarga qanday yechim topish usullari ta'kidlab o'tilgan .Mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada takomillashtirish , ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish tahlil qilinib, takliflar ishlab chiqildi.

**Tahlil va natijalar muhokamasi**

Resurslardan samarali foydalanish uchun kerakli dasturlarni qo'llash, ajratilgan investitsiyalarni to'g'ri yo'naltirish hamda iqtisodiy o'sishda oqsoqlanish kuzatilayotgan tuman va shaharlarga alohida e'tibor qaratish, muammolarga jiddiy yondashish talab etiladi. Bu kabi hududlarga qo'shimcha mablag'lar ajratilishi lozim, hamda yillik rejalar tuzilib ularni ham boshqa hududlar singari iqtisodiy rivojlantirish va ish o'rinlari sonini oshirish zarur. Yurtimizda ayrim hududlarda ya'ni viloyat va tumanlar iqtisodiy rivojlanishda ortda qolmoqda, shu sababli bu hududlarda ishsizlar soni tobora ortib bormoqda.

1-jadvalda 2026-yil statistik ma'lumotlar asosida asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha tanlab olingan og'ir toifadagi ba'zi viloyatlar kesimidagi tumanlar ro'yxati keltirib o'tilgan.

1-jadval

Viloyatlar kesimida tanlab olingan tumanlar [8]

| T/P | Hudud nomi                    | Tuman nomi                                                   |
|-----|-------------------------------|--------------------------------------------------------------|
| 1   | Qoraqalpog'iston respublikasi | 1.Bo'zatov tumani<br>2.Qonliqo'l tumani<br>3.Shumanay tumani |
| 2   | Andijon viloyati              | 1.Bo'ston tumani<br>2.Ulug'nor tumani<br>3.Paxtaobod tumani  |
| 3   | Buxoro viloyati               | 1.Peshku tumani<br>2.Olot tumani<br>3.Qorako'l tumani        |
| 4   | Jizzax viloyati               | 1.Arnasoy tumani<br>2.Mirzacho'l tumani<br>3.Forish tumani   |
| 5   | Qashqadaryo viloyati          | 1.Dehqonobod tumani<br>2.Nishon tumani<br>3.Kasbi tumani     |

Bu jadvaldagi ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, nazarda tutilgan tumanlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ustidan nazoratni yanada kuchaytirish zarur. Mazkur hududlarda sanoat

,ishlab chiqarish hamda turizmga alohida e’tibor qaratilishi yil so’ngiga qadar bu tumanlarda rivojlanishga olib keladi. Davlat tomonidan ajratilayotgan yirik mablag’larni tadbirkorlik hamda aholi turmush darajasini yaxshilash uchun to’g’ri taqsimlash muhim hisoblanadi.

Statistik ma’lumotlarga ko’ra 2025-yil O’zbekiston iqtisodiy hayotida muhim voqealarga boy bo’ldi. Yalpi ichki mahsulotning o’sishi 7 % ni tashkil etib ,yil yakuni bo’yicha 145 mlrd dollarga yetishi kutilgan. Kambag’allik yil boshidagi 8,9 % dan 5,8% ga ishsizlik darajasi 5,5% dan 4,9% ga tushdi.[9]

Ushbu maqolada hozirgi davrda Qashqadaryo viloyati kesimida iqtisodiy o’sish sur’atlarida ortda qolayotgan Dehqonobod tumaniga e’tibor qaratilgan.

#### 2-jadval

Milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlariga ko’ra ,2025-yilda Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati raqamlard .[10]

|                                    |                                               |
|------------------------------------|-----------------------------------------------|
| Doimiy aholi soni                  | 3,716,949 kishi ( 2026-yil 1-yanvar holatiga) |
| Yalpi hududiy mahsulot hajmi       | 6,8% ga o’sdi                                 |
| Sanoat ishlab chiqarish hajmi      | 7,2% ga o’sdi                                 |
| Qurilish ishlari hajmi             | 10,8% ga o’sdi                                |
| Chakana savdo tovar aylanmasi      | 8,6% ga o’sdi                                 |
| Bozor xizmatlari hajmi             | 13,6%ga o’sdi                                 |
| Tashqi savdo aylanmasi hajmi       | 0,3%ga o’sdi                                  |
| Eksport hajmi                      | 0,9% ga kamaydi                               |
| Import hajmi                       | 1,1% ga o’sdi                                 |
| Qishloq ,o’rmon, baliqchilik hajmi | 4,3% ga o’sdi                                 |

2026-yil 1- yanvar holatiga ko’ra 30424 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko’rsatmoqda.

Statistik ma’lumotlar shuni ko’rsatmoqdaki, Qashqadaryo viloyatida yalpi hududiy mahsulot 6,8% ga ,sanoat ishlab chiqarish 7,2% ga hamda chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 8,6% ga o’sgan. Ammo, tashqi savdo aylanmasi hajmi atiga 0,3% ga o’sgan bo’lsa , eksport hajmi 0,9% ga kamaygan. Bu holat ishlab chiqarish va mahsulot eksporti yetarli darajada rivojlanmaganini anglatadi. Aynan eksportni oshirish uchun ishlab chiqarish sohasiga ko’proq e’tibor qaratish lozim.

#### 3-jadval

Dehqonobod tumani statistik ma’lumotlari 2024-yil holatiga ko’ra . [11]

|                         |                           |
|-------------------------|---------------------------|
| Aholi soni              | 162,7 ming                |
| Milliy ishlab chiqarish | 200 ming tonna kaliy tuzi |

|                                               |                                                         |
|-----------------------------------------------|---------------------------------------------------------|
| Mahalliy ishlab chiqarish                     | 83 ming tonna qum va shag'al                            |
| Hududda ishsizlar soni                        | 3,9 ming nafar ya'ni 6,2%                               |
| Hudud iqtisodiyotida sanoat ulushi            | 2,6%                                                    |
| Hudud iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi ulushi | 4,1%                                                    |
| Hudud iqtisodiyotida xizmatlar ulushi         | 1,9%                                                    |
| Qishloq xo'jaligida                           | 91,5ming bosh yirik va 762,7 ming bosh mayda shoxli mol |

Dehqonobod tumani iqtisodiyotiga nazar soladigan bo'lsak, 162,7 ming kishini tashkil etuvchi ushbu hududning asosiy mahalliy ishlab chiqarish mahsuloti kaliy tuzi hisoblanadi. Yiliga 200 ming tonna kaliy tuzi hamda 83 ming tonna qum va shag'al aralashmasi ishlab chiqariladi. Hududda ishsizlar soni 3,9 ming nafarni ya'ni 6,2 % ni tashkil etadi.

Hudud iqtisodiyotida sanoat ulushi 2,6%, qishloq xo'jaligi 4,1% hamda xizmatlar sohasi 1,9% ni tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibiga 91,5 ming bosh yirik shoxli qoramol, 762,7 ming bosh mayda shoxli chorva va 186,6 ming bosh parranda kiradi. Shuningdek yil davomida 25,4 ming tonna go'sht va 55,3 ming tonna sut mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

2024- yil statistikasiga ko'ra, tuman daromadi 145,5 mlrd so'mni, xarajatlari esa 183,6 mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq hudud iqtisodiy rivojlanishida muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonda kambag'allik darajasi 2025-yilda 8,9% dan 5,8% gacha tushganini ma'lum qildi. „Bu raqamga ko'proq qarsak chalsangiz ham, rozi bo'laman ..... Bu – xalqaro tashkilotlar bergan ma'lumotlar hisoblanadi. Barchani mashaqqatli mehnatimiz bilan hurmat qilishga majbur qilyapmiz”, - dedi prezident .[12]

### **Xulosa va amaliy takliflar**

O'tkazilgan tahlillar natijasida shuni xulosa qilish mumkinki, mahalliy ishlab chiqarish darajasi past bo'lgan, eksport hajmi kam, ammo, import miqdori ortib borayotgan hududlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari sust bo'ladi. Natijada ishsizlik darajasi oshib, aholi turmush sifati yomonlashadi. Hududlarni rivojlantirish uchun ajratilgan moliyaviy mablag'lar qat'iy nazorat ostida va maqsadli ravishda sarflansa, ushbu muammolarning oldini olish mumkin.

Tadqiqot ishining yakunida hududiy rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflarni berishni maqsadga muvofiq deb topdik:

1. Mahalliy resurslardan ishlab chiqarishda oqilona foydalanish hamda korxona va zavodlarni modernizatsiya qilish orqali sanoat salohiyatini oshirish .

2. Migrantlar va ishsizlar sonini yildan yilga qisqartirib borish , ularning mehnat salohiyatidan mamlakatimiz hududida samarali foydalanishni yo'lga qo'yish.

Xulosa qilib aytganda , hududlarning iqtisodiy o'sishi ta'minlansa , aholi farovonligi yanada mustahkamlanadi va mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari ko'rsatib o'tildi.  
<https://president.uz/oz/lists/view/3554#:~:text=Shavkat%20Mirziyoyev%20O%CA%BBzbekiston%20Respublikasi%20Prezidenti%20%E2%80%93%20Prezidentning%20rasmiy%20sayti>

2.,, O'zbekiston-2030'' strategiyasining rasmiy taqdimoti.  
<https://uzbekistan2030.uz/uzsayt>

3. <https://www.google.com/search?q=https://www.pooreconomics.com/sayti>

4. <https://www.google.com/search?q=https://iq.hse.ru/news/177669431.htmlsayti>

5. [https://www.google.com/search?q=https://glazev.ru/sub\\_section/3-naukasayti](https://www.google.com/search?q=https://glazev.ru/sub_section/3-naukasayti)

6. <https://www.imf.org/external/pubs/ft/fandd/2003/06/pdf/acemoglu.pdfsayti>

7. T.T.Jo'rayev .Iqtisodiyot nazariyasi .(O'quv qo'llanma) 2024.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi PQ-49-son qaroriga 5-ilova.

9. Yil yakuni: 2025 yil O'zbekiston iqtisodiyotidagi asosiy tendensiyalar kun.uz sayti  
<https://kun.uz/news/2025/12/30/yil-yakuni-2025-yil-ozbekiston-iqtisodiyotidagi-asosiy-tendensiyalar>

10. Hududlar statistikasi : Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati saqamlarda  
<https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/66972-ududlar-statistikasi-ash-adarjo-viloyatining-izhtimoiy-i-tisodij-olati-ra-amlarda-2>

11. Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani mahalliy byudjeti 2024.

12. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/12/26/poverty/>